


# TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.


Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.


## Korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish surʼati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni


(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha  
2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar–noyabr oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar–noyabr oylarida, birlikda)



# Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat  
ko'rsatayotgan  
korxonalarining  
umumiyligi o'tgan  
yilning shu davriga  
nisbatan **5,5** foizga  
oshdi



■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



## Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalar va tashkilotlarning soni 15,7 mingtani tashkil etib, o'sish sur'ati 105,5 % ni tashkil etdi.

Jamisanoat korxonalarini va tashkilotlari sonini ko'payishining asosiy omili – tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash yo'nalishidagi korxonalarining o'sish sur'ati 110,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,4 % ga yetdi), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 105,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 95,6 % ni tashkil etdi), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 124,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5% ni tashkil etdi) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 100,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5% ni tashkil etdi) o'sishidir.

## Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



*Faoliyat ko'rsatayotgan korxona  
va tashkilotlarning umumiy soni  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan*

**16,7 foizga oshdi**

6 687      7 804

2019-y.      2020-y.


### Kichik tadbirdorlik subyektlari




**16,3**  
foizga  
oshdi



### Mikrofirmalar




### Kichik korxonalar



## Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
- fuqarolik obyektlarini qurish
- bino va inshootlar qurish

2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlarning soni 7,8 mingtani tashkil etib, o'sish sur'ati 116,7% ni tashkil etdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar sonini ko'payishining asosiy omili – bino va inshootlar qurish yo'nalishidagi korxonalarining o'sish sur'ati 108,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 49,9 % ga yetdi), fuqarolik obyektlarini qurish – 119,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 6,6 % ni tashkil etdi) hamda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 127,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 43,5 % ni tashkil etdi) o'sishidir.

# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Kichik tadbirkorlik subyektlari



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar




# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlarning soni 25,9 ming tani tashkil etib, o'sish sur'ati 126,5 % ga tashkil etdi.

Jami savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar sonini ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishidagi korxonalarning o'sish sur'ati 124,6 % ga (jami savdodagi ulushi 48,8 % ni tashkil etdi), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo – 118,7 % ga (jami savdodagi ulushi 43,8 % ni tashkil etdi) hamda avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash – 124,9 % ga (jami savdodagi ulushi 7,4 % ga teng) o'sishidir.



■ Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1-dekabr holatiga ko'ra 3,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 mingtaga yoki 16,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,2 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 mingtaga yoki 15,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar–noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 0,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 mingtaga yoki 23,0 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning tumanlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 7,0 ming tani tashkil etib, ulardan 6,8 mingtasi yoki 96,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 0,7 mingtaga yoki 112,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida 912 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



**Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

12

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>1 242</b>	671	571
<b>Qozog'iston Respublikasi</b>	<b>658</b>	297	361
<b>Ozarbayjon Respublikasi</b>	<b>154</b>	47	107
<b>Ukraina Respublikasi</b>	<b>100</b>	53	47
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>82</b>	32	50
<b>Tojikiston Respublikasi</b>	<b>77</b>	35	42
<b>Turkmaniston Respublikasi</b>	<b>60</b>	22	38
<b>Belarus Respublikasi</b>	<b>54</b>	26	28
<b>Armaniston Respublikasi</b>	<b>24</b>	16	8
<b>Moldova Respublikasi</b>	<b>17</b>	5	12

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni


(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2020- yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Toshkent shahri</b>	<b>6 819</b>	<b>2 845</b>	<b>3 974</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Uchtepa</b>	222	83	139
<b>Bektemir</b>	165	94	71
<b>Yunusobod</b>	885	373	512
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	848	368	480
<b>Mirobod</b>	1 169	386	783
<b>Shayxontohur</b>	478	231	247
<b>Olmazor</b>	368	203	165
<b>Sirg'ali</b>	303	156	147
<b>Yakkasaroy</b>	1 084	413	671
<b>Yashnobod</b>	541	252	289
<b>Chilonzor</b>	756	286	470

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 169 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,1 %), Yakkasaroy – 1 084 ta (15,8 %) hamda Yunusobod tumanlarida 885 tani (12,9 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Sirg'ali – 303 ta (4,4 %), Uchtepa – 222 ta (3,2 %) hamda Bektemir tumanlarida 165 tani (2,4 %) tashkil etgan.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

15



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Yunusobod – (13,2 %), Chilonzor – (12,8 %), Mirzo Ulug'bek – (11,1%), Olmazor – (10,2 %), Shayxontohur – (9,9 %), Uchtepa – (9,2 %), Yakkasaroy – (8,7 %), Mirobod – (8,6 %), Yashnobod – (7,7 %), Sirg'ali – (6,2 %) hamda Bektemir tumanlarida (2,4 %) tashkil etgan.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2020- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)


2020- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (13,2 %), Yunusobod – (11,7 %), Mirzo Ulug'bek – (11,1 %), Shayxontohur – (10,1 %), Uchtepa – (9,9 %), Olmazor – (9,8 %), Yashnobod – (8,3 %), Mirobod – (8,2 %), Yakkasaroy – (7,6 %), Sirg'ali – (7,4 %) hamda Bektemir tumanlarida (2,7 %) tashkil etgan.



# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining tumanlar bo'yicha soni

(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)


16



2020- yilning yanvar–noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Shayxontohur – (14,2 %), Olmazor – (14,0 %), Yunusobod – (11,6 %), Yashnobod – (10,1 %), Uchtepa – (9,3 %), Chilonzor – (8,9 %), Sirg'ali – (8,9 %), Mirzo Ulug'bek – (8,0 %), Yakkasaroy – (7,0 %), Mirobod – (4,1 %) hamda Bektemir tumanlarida (3,9 %) tashkil etgan.

## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main navigation menu includes links to 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. A search bar at the top right allows users to search by name ('Nomi') or code ('Kod'). The central content area features a search form for 'Statistik klassifikatsiyalar' (Statistical classifications), with fields for 'Rasmidagi kodini kiritning' (Enter the code from the document) and 'Kodni yangilash uchun rasmiga bosing' (Click here to update the code). To the left is a sidebar titled 'RASMIY STATISTIKA' containing links to various statistical reports like 'Elon qilish taqvim', 'Metama'lumotlar', and 'Makroko'satikichilar'. To the right is a sidebar titled 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' listing documents such as 'Ahollini ro'yxatga olish 2022', 'Harakatlar strategiyasi', and 'Press-releziyar'. The footer contains links to 'UZSTAT' and 'Qidiruv'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'rالayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent shahar statistika boshqarmasi**

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**tel.: 71 203-88-31**